

**QASHQADARYO-SURXONDARYO BAXSHICHILIK
MAKTABINING O‘ZIGA XOS AN’ANALARI**

Suvonova Ozoda

*Andijon Davlat Universiteti, Tarix fakulteti,
Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish yo‘nalishi. 3-bosqich 308-guruh talabasi*

Anotatasiya: Doston ijrochiligidagi har bir baxshichilik maktabining o‘ziga xos an’analari bo‘lganligi kabi Qashqadaryo-Surxondaryo vohasida ham doston ijrochiligi an’analarining o‘ziga xos jihatlari shakillangan. Ushbu maktab vakillari va ularning repertuaridan o‘rin olgan dostonlar, doston ijrochiigi xususiyatlari bilan boshqa dostonchilik maktablaridan farq qiladi. Ushbu maqolada doston ijrochilik maktablari, jumladan Qashqadaryo-Surxondaryo doston ijrochilik an’analarining o‘ziga xos jihatlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: Doston, baxshi, shoir, epik janr, baxshichilik maktabi, an’ana, doston ijrochiligi, ichki ovoz, bo‘g‘iq ovoz, epik an’ana, repertuar, sujet, adabiy-nasriy.

Birinchi Prezidentimiz Islom. Karimovning 2008-yil e’lon qilingan <<Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch>> kitobida: <<Ajodolarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimiy toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir>>, - deyilgan.[1]

O‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi musiqiy folklor qatlami qatorida kasbiy (ustozona) musiqiy namunalarida ham badiiy barkamol ifodalangan. Zero, xalq musiqasi negizida unib-o‘sgan va bizgacha “ustoz-shogirda” ta’lim an’anasi vositasida yetib kelgan. Kasbiy musiqa durdonalarida ulug‘ ajodolarimizning teran ruhiy olami, falsafiy o‘y-mushohadalari, hakimona dunyoqarashlari badiiy mukammal in’ikos etilgandir.

O‘zbek kasbiy musiqa san’ati o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega. Mutaxasislarning fikriga ko‘ra, kasbiy musiqaning ilk shakillanishida dastlab “saroy madaniyati” muhim o‘rin tutgan bo‘lib, bunda xalq orasidan yetishib chiqqan iste’dodlar xon saroylariga musiqachi bo‘lib xizmat qilish uchun jalb etilganlar. Demak, o‘tmishda musiqa san’ati bilan maxsus shug‘ullanib, shu tarzda hayot kechiruvchi bastakor, kasbiy musiqa janrlari – rivojlangan ashula, katta ashula, suvora, doston, maqom, yavvoyi maqom, yirik hajmli cholq’u kuy yo’llari ham qaror topa

boshlagan edi.

Bu namunalar o‘zining qator sifatlari, xususan :

- a) nisbatan murakkab ko‘rinishdagi shaklu-shamoyili:
- b) keng nafasli va rivojlangan kuy-ohangli:
- c) aytim yo‘llari asosan aruz vaznidagi mumtoz she’riyatga bog‘langanligi:

ijrochilik uchun “ustoz-shogird” an’anaviy mакtabida hosil etilgan kasbiy malakalarning bo‘lishi kabilar bilan musiqiy folkordan ajralib turadi. Binobarin, kasbiy musiqa janrlari asrlar davomida og‘zaki ravishda kamol topib kelgan va ajdoddan avlodga “ustoz-shogirda” an’anasi orqali meros o‘tib kelgan mumtoz musiqaning yuksak namunasidir. Xalqimizning sevimli asarlari bo‘lgan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish” kabi dostonlarning ijodkori va ijrochilar baxshi nomi bilan yuritiladi.

<<Alpomish>> dostonining ming yilligi xalqaro miqqyosda keng nishonlandi, <<O‘zbekiston xalq baxshisi>> unvoni joriy etildi. Bu esa milliy ma’naviyatimizning asoslaridan biri bo‘lgan xalq ijodining yuksalishiga xizmat qildi. <<Alpomish>> dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodga o‘tib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir, - deb yozadi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining <<Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch>> kitobida. – Agarki, xalqimizning qadimiylari va shonli tarixi tunganmas doston bo‘lsa, <<Alpomish>> ana shu dostonning shoh bayti, desak to‘g‘ri bo‘ladi>>.[2] Bu nafaqat <<Alpomish>> dostoniga, balki, butun folklor asariga, milliy-ma’naviyatimizga berilgan yuksak bahodir.

Baxshilar san’atida so‘z ustasi, qo‘shiq kuylovchisi va soz (qo‘biz yoki do‘mbira) cholg‘uchisi bilan birlashgan bo‘lib bunda ular dostonlarning narsiy qisimlarini mahorat bilan badiiy so‘zlab hikoya etsalar, she’riy bo‘laklarini maxsus aytim shaklida ichki (maxsus “bo‘g‘iq”) ovoz bilan kuylaydilar va bunda qo‘biz yoki do‘mbira cholg‘usidan jo‘rnavoz sifatida foydalanadilar. Dostonni baxshilar kuylaydi. Baxshilar esa o‘z ustozlaridan maxsus dostonchilik sirlarini o‘rgangan san’atkorlardir. Agar maqollarni, topishmoqlarni millatimizning istagan vakili aytishi, qo‘shiqlarni har bir oshiq yoki ma’shuqa ijro etishi mumkin bo‘lsa, doston ijrosi alohida shogirdlik faoliyatini boshidan kechirgan, maxsus ta’lim ko’rgan va muayyon iqtidorga ega shaxsgagina nasib qiladi.

<<Baxshi>> so‘zi <<O‘zbek tilining izohli lug‘ati>>da to‘rt xil ma’no berishi ko‘rsatilgan:

1. Donishmandlik
2. Dostonlarni kuylovchi
3. Dam solib davolovchi tabib
4. Buxoro xonligida qurilish mablag‘larini nazorat qiluvchi.

Yuqoridagi to‘rt ma’nodan uchtasi bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli, desak xato bo’lmaydi. Chunki xalq orasida baxshi bo‘lish uchun inson donishmand, aqilli bo‘lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta’kidlanadi. Ikkinchidan, “baxshi” lug’atda izoh berilishicha, xalq dostonlarini ijro etadi. Uchinchidan, qadim zamonlardan xalq tasavvuridagi baxshilar so‘zning mo‘jizaviy fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forig’ qiluvchi odamlar hisoblangan. Hozir va o‘tgan asrlarda baxshi davrasida ishtirok etgan odamlar doston eshitishi bilan birga dardlaridan ham qutilganlar, turmush va tashvishlaridan ozod bo‘lganlar, o‘zlarini yengil sezganlar. O‘zbek folklorshunosligi asoschisi H.T. Zarifovning ma’lumot berishicha, baxshi mo‘g‘ulcha ba buryatcha “baxshi”, “baxsha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ustoz”, “ma’rifatchi” ma’nolarida qo‘llangan. Ma’lum bo‘ldiku, baxshi xalq tomonidan cheksiz xurmatga ega, e’zoz topgan hunar egalari ekan.

Dostonchilik maktablari, o‘zbek dostonchiligida doston kuylash an’anasi qadimda uch yo‘nalishda rivojlangan. Birinchidan, Bulung’ur, Qo‘rg‘on, Shahrисабз, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqay dostonchilik maktablarida do‘mbira chertib yakka holda, bo‘g‘iz ovoz bilan ijro etilgan. Ikkinchidan, Xorazmda tor, dutor, g‘ijjak, garmon, bulamon, qo‘shnay, doira jo‘rligida ba’zan yakka, ba’zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. Uchinchidan, Farg‘ona vodisida dutor jo‘rligida ochiq ovozda aytilgan. Shubhasiz o‘zbek dostonchiligida keng tarqalgan ijro usuli do‘mbira jo‘rligida bo‘g‘izdan doston aytish hisoblanadi. Baxshining bo‘g‘izda ichdan kuch bilan ovoz chiqarishi juda qadim zamonlardan shimol xalqalari afsungarlar – shamanlarda mavjud edi. Demak, o‘zbek baxshilarini uzoq o‘tmish zamonlar bilan qandaydir janr yoki san’at ijrosi bog‘laydi. Ehtimol keyinchalik bu ijro usuli baxshilar uchun an’ana bo‘lib qolgan.[3]

Xususan shu o‘rinda Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida dostonchilikning ikki yirik markazi – Shahrисабз va Sherobod dostonchilik maktablari vujudga kelgan. Abdulla Nurali o‘g‘li va Islom o‘g‘li kabi shoirlar Shahrисабз dostonchilik maktablarining yirik namoyondalari bo‘lsa, Shernazar Beknazar o‘g‘li, Mardonqul Avliyoqul o‘g‘li, Umar Safar o‘g‘li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur vakillaridir.[4] Malumki, xalq og‘zaki ijodida dostonlar necha ming yillardan beri baxshilar tomonidan kuylanib, sayqallanib, avlodlarga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan. Baxshichilik an’analarini kuzatarkanmiz, u soz chertganda sozonda, she’riy parchalarni aytganda xonanada, shuningdek, parchalarni bir zumda to‘qib ketadigan shoir hamdir. Shoirtabiat baxshi hech qachon dostonni bir xil, ya’ni o‘zgarishsiz ijro etmaydi. Baxshi “Alpomish” dostonini kuylaganda uning mardligi, Barchinni so‘zlaganda go‘zal va oqila qiz ko‘z oldimizda gavdalanadi. Shuning uchun doston ham har bir tinglovchiga beqiyos ma’naviy zavq beradi.

Darhaqiqat, yurtimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Xoramz viloyatlari hamda Qoraqolpog‘iston Respublikasi hududlarida baxshichilik san’ati

rivojlangan, alohida-alohida maktablar yaratilgan. Xususan Qashqadaryo-Surxondaryo vohasida doston ijrochilar qadimdan yuzboshi, baxshi, shoir deb nomlangan. Baxshilar san'atida so'z ustasi, qo'shiq ijrochisi, do'mbira sozi birlashgan bo'ladi. Baxshilar kuylayotganda maxsus ichki ovoz, (bo'g'iq ovoz) bilan do'mbiraning ovoziga jo'rnavozlik qiladilar. Bo'g'iq ovozda kuylash Qashqadaryo-Surxondaryo vohasi dostonchilik maktabining asosini tashkil etadi. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik an'analari Sherobod dostonchilik maktabi bilan mashhur. XIX asrning 1-yarmi XX asr bosqlarida yashagan bu maktabning mashhur vakilli Shernazar Beknazar o'g'li bir qancha shogirdlar yetishtirgan. Mardanqul Avliyoqul o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali boymat o'g'li kabi o'nlab dostonchilar shu maktabga birlashadi va ulardan birqancha dostonlar yozib olingan. Bu maktab nomayondalari nafaqat doston aytish, balkim termachi va do'mbirachi sifati ham mashhur bo'lishgan va ushbu an'ana hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Xalq ijodi, xususan, og'zaki ijod namunalari yurtboshimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek ajdodlarimiz tafakkuri va dahosini namoyon etuvchi ma'naviy xazina hisoblanadi. Bu xazina boyliklarni yosh avlodning ma'nан kamolat topishi yo'lida xizmat qildirish soha xodimlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sh.Mirziyoyev xalqaro baxshichilik ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida ta'kidlanganidek: "...Tengsiz ma'naviy boyligimiz bo'lmish mumtoz san'atni, xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamiyat arboblari, barcha madaniyat ahlining ezgu burchidir", - degan.[5]

Surxondaryo doston ijrochilarini yuzboshi deb atashadi. Ijro uslubi rechitativ, tomoq (ichki ovoz) an'analari bo'ysingan, do'mbira jo'rligida ijro etiladi. Bu maktabga xos bo'lgan "Qo'ng'iroqcha nag'malar" ham dostonlarda qo'llanilib kelingan. Bu baxshilar repertuariga nazar tashlar ekanmiz, dostonchilikning nisbatan quyi bosqichlariga, badiiy tafakkurning uncha rivojlanmagan shakillariga duch kelamiz. Surxondaryo-Qashqadaryo, ba'zan Janubiy Tojikiston baxshilari o'zaro doimiy aloqada bo'lgan va ularning ko'pchiligi Sherobod bilan bog'langan. Bu maktab repertuaridagi ayrim dostonlar "Oltin qovoq", "Malla Savdogar", "Ollonazar Olchinbek" kabi dostonlar boshqa joylardagi baxshilar repertuarida uchramaydi. 1960-yillardan buyon esa an'analarning muayyonlashib borishi, ma'lum ma'noda kitobiylikka intilish kuchaygan. Bu jarayonda Qashqadaryo baxshichilik san'ati yetuk doston ijrochisi, iste'dodli xalq baxshisi Qodir baxshi Rahimovning xizmatlari katta bo'lgan. Qodir baxshi Rahimov "Alpomish" dostonini kuylayotganda, Alpomish qalmoq mamlakatidagi zindondan chiqib, zolimlardan qutulib, ona Vatani – Boysun – Qo'ng'irotga qaytayotgan holatini shunchalar zavq bilan to'lib-toshib, xuddi o'z Vatani ozoda va mustaqil bo'lganday, berilib kuylaydiki, o'sha qo'shiqlar ohangida Vatanga muhabbati tinglovchiga yaqqol sezilib turadi. Birinchi Prezidentimiz Islom

Karimov: “Shu boisda “Alpomish” dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do’st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o’rgatadi”[6], - degan edi.

Dostonlarda tarixiy voqealik xalq fantaziyası asosida umumlashgan obrazlarda o‘z ifodasini topadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish hukumronlik qiladi. Bunday umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari va orzu-umidlari bilan yo‘g‘rilgan. Demak, dostoniga epik, monumentallik xos bo‘lib, kompozitsion va sujet qurilishi jihatidan murakkab voqeal-hodisalarini qamrab oladi. Bunday voqeal va hodisalar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo‘lib, ular xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Favqulodda kuch-qudratga ega bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning orzu-umidlari, imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Xalq dostonlarining janr xususiyatlari uning o‘ziga xos uslubi va badiiy shaklini belgilaydi, ya’ni kuy va ijro bilan mahkam bog‘liq bo‘lgan yirik hajmli va keng ko‘lamli dostonlarning poetik bayoniga ko’tarinkilik, tantanavorlik, an’anaviylik, she’riy va prozaik qismlarning davomiy almashinib kelishi xosdir. Doston yirik epik janr bo‘lib, doston aytishda har bir mакtab, vohaning o‘ziga xos an’analari bo‘lganligi kabi Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik maktabining o‘ziga xos jihatlari shakillangan, ushbu maktab vakillari va ularning repertuaridan o‘rin olgan dostonlar, qaysi vaqtarda aytilishi xususiyatlari bilan boshqa dostonchilik maktablaridan farq qiladi. Qashqadaryo-Surxondaryo vohasida dostonlarni kuylash mavsumi asosan kech kuzda, qishloq ahli dehqonchilik bilan bog‘liq yig‘im-terim ishlarini tugatganidan so‘ng boshlanib, to erta bahorga qadar davom etgan. Odatda baxshilar mahalliy aholi tomonidan maxsus uyuştirilgan dostonchilik kechalari o’tkazish uchun xonadonlardan biriga taklif etiladi. Bu xonadonda mahalla ahli, qo‘ni-qo‘shnilar ham yig‘ilishib baxshining doston ijrolarini tinglashgan. Bunday kechalar bir necha kungacha davom etgan. Bundan tashqari oilaviy bayram, to‘y marosimlari va boshqa bayram tantanalarida ham baxshi-doston aytuvchilarni taklif etishgan va bu odad tusiga kirgan[7]. Ushbu voha dostonchiligi juda qadimiy, ayni paytda hozirga qadar yaxshi saqlangan mahalliy udum va an’analarga ega. U o‘ziga xos adabiy-nasriy, she’riy, shuningdek, musiqiy-ijodkorlik xislatlari bilan ta’riflanadi. Doston voqealarining bosqichma-bosqich, salobatli bayon etilishi jarayonida so‘zli va sof cholg‘u kuylar katta o‘rin tutadi. Shuningdek, uning ijrosi davomida muntazam ravishda aytiluvchi har-xil mazmundagi qo‘sinqsimon namunalar “noma” deb yuritiladi. Nomalar dostonchi tomonidan do‘mbira cholg‘usi jo‘rligida yo‘g‘on, bo‘g‘iq tabiatli, shu boisdan “ichki” deb ataluvchi ovozda ijro etiladi. Har bir doston o’nlab turlicha holat va kayfiyatlarni ifodalovchi noma va kuylardan tuziladi. Ijrochi muayyon voqelik vaziyatidan kelib chiqib, o‘z ijro bisotida bor musiqiy namunalarni tanlab, o‘rinli ishlataladi. Doston tarkibidagi aksariyat kuy va nomalar kichik hajmli,

oddiy tuzilmali shaklu-shamoyillardan iboratdir. Ulardan foydalanilgan musiqiy tovushlar ko'lami, vazn-usullari jihatidan biroz chegaralanganidek tyulishi mumkin. Shunday bo'lsa-da doston ijrochining badihago'ylik mahorati orqali bunday qadimiy musiqiy namunalarning rango-rangligi, ta'sirchan va ifodaviyligi ta'minlanadi. Qashqadaryo-Surxondaryo vohalarida eng keng tarqalgan tarixiy qahramonlik, ishqiy dostonlardan "Alpomish", "Avazxon", "Rustamxon", "Go'ro'g'li" va boshqalarni tilga olish mumkin. Epik xotiraviylik faqat doston matnlaridagi so'z bilan bog'liq holatlarni yodda saqlash emash, balki do'mbira jo'rligidagi ohanglarni ham birgalikda ilg'ash, shu asosda doston ijro etish demakdir. Baxshichilik san'atida so'z va soz birligi muhim o'rin egallaydi. Baxshi o'z ishtirok etmagan epik voqelikni dunyoqarashda shakillantirib, voqealar jarayonida ruhiy holatlarni tasvirlaydi, dramatik rol bajaradi. Shu asosda tinglovchilar auditoriyasini o'ziga jalb qilib, badihago'ylik sirlarini namoyish qiladi. Usta baxshi bo'lib shakillanadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir hududning o'ziga xos qadriyat va an'analari mavjud. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik maktabi mana necha yillardan beri rivojlanib, yosh avlod ruhiyatini sog'lam tarbiyalashda, bizning nomaddiy ma'daniy merosimiz bilan doimo aloqa o'rnatishda muhim vazifani bajarib kelmoqda. Voha ahlining tanti va mardligi, yashash tarzi, tabiat bilan chambarchas bog'liq holda yaratilgan doston ijrochilik an'analari bor. Bu yerga kelgan har bir inson ularning dostonlaridan, xalq termalaridan tinglamay turib qaytmayd, qaytolmaydi. Zero, bugungi kunda bu diyorda sayyohlarni chorlagan eng katta kuch ham baxshi do'mbirasining sehrli sadosi va dostonlarimizdagи sir-sinoatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshken: Ma'naviyat, 2008. – B. 31.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent. Ma'naviyat, 2008. – B. 32-33.
3. Omonulla Madayev. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent, <<Mumtoz so'z>>. 2010. 162-163, b.
4. Ibrohimov O. Xudoyeva G'. Musiqa Tarixi. Toshkent <<Barkamol Fayz media>> - 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan marosimdagи nutqi // Xalq so'zi gazetasi, 2019-yil, 7-aprel. – N68(72-98) son. – B.1.
6. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent" Ma'naviyat, 2008. – B.33.
7. Ibrohimov O. Xudoyeva G'. Musiqa Tarixi. Toshkent - <<Barkamol Fayz media>> - 2018. 211. b.